

ISLOMDA KIYINISH MADANIYATI

Zokirova Ra’no Islom qizi

Buxoro viloyati Vobkent tumani, Islomshunos

Annotatsiya:

ushbu maqolada Islomda kiyinish odobi va madaniyati haqida fikrlar dalillar bilan isbotlanib Quran va Hadis bilan o’quvchi qalbiga tez va oson o’rnashib oladi.

Kalit so’zlar: libos, harir, shoyi, parcha kabi matolar, tilla, go‘zallik, ziynat.

Introduction

Bismillahir Rohmanir Rohiyim. Alloh taologa bitmas-tuganmas hamdu sanolar bo‘lsin. Payg‘ambarimizga mukammal va batamom salavotu durudlar bo‘lsin.

Libos – bu Allohning O‘z bandalariga ato etgan tengsiz ne’matlaridan biri desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. U insonni issiq-sovuqdan saqlaydi, avratlarini berkitadi va kishiga ziynat bo‘lib xizmat qiladi. Islom insonni mukarram qilish bo‘yicha ko‘rgan choralar ichida libos masalasi ham bor. Bu masalada insonning kiyinish madaniyatiga rioya qilishi o‘zi uchun obro‘ va martaba ekani, go‘zallik va ziynat ekani bir nechta kitoblarimizda zikr qilingan.

Alloh taolo A’rof surasida marhamat qiladi: “Ey Odam bolalari, batahqiq, sizlarga avratingizni to‘sadigan libos va ziynat libosini nozil qildik. Taqvo libosi, ana o‘sha yaxshidir. Ana o‘shalar Allohning oyat-belgilaridandir. Shoyadki eslasalar” (26-oyat).

Insonni hayvondan ajratib turadigan alomatlardan biri libosdir. Odamning avrati – aybini berkitib turishi uchun Alloh taolo unga libos ato qilgan. Libosning zaruri avratni pinhon tutadigani hisoblanadi. Lekin Alloh insonning avratdan boshqa a’zolarini ham to‘sish ehtiyoji borligini inobatga olib, libosni ziynat tarzida nozil qildi. Xuddi shuningdek, libosni o‘z o‘rnida, ya’ni shariatga muvofiq kiygan inson ziynatli hisoblanadi.

Yuqorida aytganimizdek, Alloh taolo kiyim-boshni insonga avratini to‘ssin, o‘zini tuzatsin, deb bergan. Ammo barcha sohada haddida turmagan inson bu o‘rinda ham turli buzuqliklarga yo‘l qo‘ydi. Ba’zilari kiyim-boshni faxr va g‘urur vositasi, ikkinchilari uni hayotdagi asosiy maqsad qilib oldi. Qadr-qiyamatni ham kiyim-bosh bilan o‘lchay boshladi. Uchinchilari kiyimni tor va yupqa kiyib, undan ko‘zlangan asosiy maqsadni suiiste’mol qilishga kirishdi. Xususan, tarbiyasiz ayollar libosni aynan avratni bo‘rttirib ko‘rsatish uchungina kiydilar. Bu esa yuksak insoniy sharafni yerga uradigan holatdir. Shuning uchun ham Islom bu ishlarda o‘z ta’limotlarini joriy qildi.

Boshqa dinlar, tuzumlar va xalqlarning bu boradagi tasarruflariga qaraydigan bo‘lsak, Islomdagи kabi mo‘tadillikni ko‘rmaymiz. Ular yoki u tarafga, yoki bu tarafga og‘ib ketgan bo‘ladilar.

Ularning ba’zilari yeb-ichish, kiyish va sadaqa ishlarida tarki dunyo yo‘lini tutib, imkonibor narsani qilmasdan, o‘zini o‘zi qiyaydi. Albatta, hozirda bu toifadagilar oz.

Ba’zilar esa hayotni yeb-ichish, kiyinishu o‘yin-kulgidan iborat, deb xayol qiladi. Butun imkoniyatlarini mazkur narsalarga sarflaydi.

Yeb-ichishda ham, kiyinishda ham, sadaqa qilishda ham doimiy va chegarasiz ravishda isrofga yo‘l qo‘yadilar. Eng yomoni, bu masalada dunyoqarashlari noto‘g‘ri bo‘lgani sababli yeydigan

taomlari, ichadigan ichimliklari, kiyadigan kiyimlari va qiladigan sadaqalari ila manmanlik, mutakabbirlik qiladilar. Hozirda xuddi shu toifa ko‘pchilikni tashkil etadi. Ming afsuslar bo‘lsinkim, ba’zi musulmonlik da’vosini qilib yurganlar ham Islom ta’limotlaridan uzoqlashish, ularga amal qilmaslik oqibatida bu masalada xatoga yo‘l qo‘yadilar. Oqibatda turli-tuman muammolar kelib chiqadi.

Libos insonning terisini ko‘rsatadigan darajada yupqa va shaffof bo‘lmasligi, tor bo‘lmasligi, erkak kishi kiyinishda o‘zini ayollarga o‘xshatib olmasligi yoki aksincha, ayol erkakcha kiyinmasligi kabilar kiyinishdagi islomiyligi ta’limotlardandir. Imom Buxoriy o‘zlarining «Sahih» to‘plamlarida Abdulloh ibn Abbas (raziyallohu anhumo)dan rivoyat qilgan hadisi sharifda shunday deyiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam (kiyinishda) o‘zini ayollarga o‘xshatadigan erkaklarni va erkaklarga o‘xshab kiyinadigan ayollarni la’natladilar».

Yana shuni ta’kidlab o’tish kerakki, erkaklarga tilla taqinchoqlar va ipak liboslar harom qilingan. Imom Abu Dovud o‘zlarining «Sunan» nomli hadis to‘plamlarida Ali (raziyallohu anhu)dan rivoyat qilishlaricha, bir kuni Nabiy sollallohu alayhi vasallam ipak matoni olib o‘ng tomonlariga qo‘ydilar, tillani olib chap tomonlariga qo‘ydilar. So‘ng: «Mana bu ikki narsa ummatimning erkaklariga haromdir!», dedilar.

Libos kiyishda o‘ng tomondan kiyish sunnatdir. Oysha onamiz (raziyallohu anho) aytadilar: «Nabiy alayhissalomga poklanishda (ya’ni, tahorat va yuvinishlarda), soch tarashda va oyoq kiyim kiyishda o‘ng tomondan boshlash yoqar edi» (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati). Bu hadisda faqat poyabzal kiyish zikr qilingan bo‘lsada, hadisda tilga olingen sunnat bo‘lmish o‘ng tomondan boshlash boshqa turdagи liboslarni kiyishga ham taalluqli hisoblanadi.

Kiyimlarni pok tutish lozim. Islom dini poklik dinidir. Bu poklik ma’naviy va moddiy pokizalikni taqozo etadi. Alloh taolo Qur’oni karimning Muddassir surasida Nabiy alayhissalomga qarata va u kishi orqali butun insoniyatga xitob qilar ekan: «Kiyimlaringni pok tut!», degan. Demak, libos pokizaligi musulmon kishining hayotida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Shu bois ham namozning shartlaridan biri libosning pokligidir. Undan tashqari poklik va orastalik iymondan ekanligiga dalolat qiluvchi bir qancha rivoyatlar ham kelgan.

Kiyinish madaniyati – insonning tashqi qiyofasi, shuningdek, ma’naviy dunyosi, estetik didi, axloqiy sifatlari va aqliy salohiyatini ifoda etadigan tushuncha. Ko‘hna bitiklarda kiyim bilim, did, farosat, uyat kabi insoniy fazilatlar bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Kiyim – inson madaniy darajasining asosiy belgilaridan biri. Kiyinish madaniyati insonning go‘zallik, nafosat, nazokat, odob borasidagi qarashlarini aks ettiradi. Shuning uchun ba’zi xalqlarda "Kiyimiga qarab kutib oladilar", degan naql bor. Kishining kiyinishiga qarab, uning nafaqat ma’naviy-madaniy darajasi, balki moddiy ahvoli, kasbi, mavqeい, hatto e’tiqodini ham aniqlash mumkin. O‘tmishda ko‘pgina mamlakatlarda turli toifa va tabaqa vakillarining o‘ziga xos kiyinish usuli belgilab qo‘yilgan. Hayot sur’ati tezlashgan, o‘zaro muloqotga juda oz vaqt sarflanayotgan hozirgi zamonda kishi o‘zini, o‘z aqliy salohiyatini to‘liq namoyon etishga imkoniyati cheklangani tufayli ba’zan faqat kiyinish madaniyati orqali jamoatchilikda yaxshi taassurot qoldirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kiyinish madaniyati bugungi kunda alohida ilmga aylangan. Amaliy kiyimshunoslikda imijni yaratish bilan bog‘liq muammolar o‘rganiladi. Kiyimga nafaqat qulay, foydali jihatlari, balki o‘zgalar bilan muloqotda shaxsning o‘zligini namoyon etish nuqtai nazaridan ham yondashiladi. Imij bo‘yicha mutaxassislar atrofdagilarda yaxshi taassurot uyg‘otishning asosiy vositasi qatorida kiyinish madaniyatini tilga olishlari bejiz emas.

Kiyim kiyishda quyidagi duoni o'qigan afzal: «Alhamdu lillahillazi kasaaniy haza va rozaqoniyihi min g'oyri havlin minniy valaa quvvah». Ya'ni, «Barcha hamdu sanolar mening o'zimda hech qanday kuch-qudrat va imkoniyat bo'Imagan holda bu libosni menga kiydirgan va rizq qilib bergen Allohga xosdir».

Xulosa sifatida aytganda, libos insonning ziynati bo'lib uning didi, farosat va taqvosidan darak beradi. Kiyinishda islom ta'limotlariga amal qilsak savobga ega bo'lish bilan bir qatorda atrofimizdagilarning hurmatiga ham sazovar bo'lamiz.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) kiyimning orasta, bejirim, kamtargina bo'lishini targ'ib qildilar. Erkaklarni harir, shoyi, parcha kabi matolar, tilla kabi matohlardan foydalanishdan qaytarganlar. Samoviy dinlarning hammasida kiyimlarning sodda, ixcham, ibodatga muvofiq keladigan, bejirim, kamtarona bo'lishi talab qilinadi.

Ulamolardan biri kiyinish borasida shunday degan ekan: "kiyim kiyishda ahmoqlar ustingdan kulmaydigan va shariat bilimdonlari ayblamataydigan kiyimni kiy".

Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub" asarida bunday yozgan: "erkaklarining o'zini ko'z-ko'z qilish uchun yasanishi xotinlarning oroyish uchun bezanishlari kabitidir. Ammo bu kabi bezanmoq har ikkalasi uchun ham nomunosib, xususan, erkaklar uchun ko'proq sharmandalikdir".

Hozirgi paytda ayrim qiz-juvonlar o'rtasida urf bo'lganiday engi va etagi kalta, ko'ksi ochiq kiyimlar, gavda va a'zolarini "ko'z-ko'z" qilib turuvchi tor va yupqa-xarir ko'yaklar, eng achinarli ko'krak, kindik va boldirlarini oshib, hammaga namoyish qilib yurishlar odobimizga mutlaqo ziddir. Ba'zi yoshlarning chet el urf odatlariga ko'r-ko'rona taqlid qilib, tor va ochiq yupka kiyimlarni kiyib, yarim yolong'och holatda badanlarini reklama qilish orqali "ommaviy madaniyat"ning jirkanch unsurlarini tarqatayotganliklari achinarli holat. Shu bilan birga ayrim dinga mutassiblik bilan amal qiluvchi insonlar shariat belgilab bergan chegaralardan oshib, hech qaeri ko'rinxaymaydigan qilib, qop-qora kiyimlarni kiyib olishib, bu bilan insonlarning o'rtasida o'zlarini denga eng to'g'ri amal qiluvchilar, boshqalarni esa noto'g'ri yo'lida yurganligini da'vo qilishlari, ayrim holatlarda ushbu kiyimlari orasiga portlovchi moslamalar o'rnatib tinch aholi orasida portlatish holatlarining uchrayotganligi ham achinarli holatdir. Bu hol yuksak insoniy sharafni erga urish bo'lib, ko'p asrlar davomida muqaddas Islom diniga amal qilib, butun dunyoga ilm ziyosini taratib kelgan ota-bobolarimiz va ularni dunyoga keltirib tarbiya qilgan momolarimizdan har bir sohada, jumladan kiyinish borasida ham ulardan o'rnak olishib, ularga munosib avlod bo'lishga harakat qilmog'imiz zarurdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim.
2. Abulfido Ismoil ibn Kasir. "Tafsirul Qur'onil Azim", 4 juz. – Bayrut-Livan: Dorul maorif, 1989.
3. Shayx Alouddin Mansur. "Qur'oni Karim". /O'zbekcha izohli tarjima. – Bishkek: Erkin-Too, 2001. – 767 b.
4. Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi". – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2009. – 617 b.
5. Muhammad ibn Ismoil Abu Abdulloh Buxoriy. "Sahihul Buxoriy", 6 juz. – Bayrut: doru ibni Kasir – Yamoma, 1987.
6. Muslim ibn Hajjoj Abulhusayn Qushayriy Naysoburiy. "Sahihu Muslim", 5 juz. – Bayrut: Doru ihyoit turos.